O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYAVAZIRLIGIDA
HISOBGA OLINDI
HISOB RAQAMI: 409
2026 - yil 21 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO‘MITASINING QARORI

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini (0112-26-son SanQvaN) tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi PF–6035-son “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (0112-26-son SanQvaN) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ayrim sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi bilan kelishilgan.

4. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

Rais
01-Iyul 2026-yil
8 son

YUSUPALIYEV BAXODIR KAXRAMANOVICH

Kelishildi:

Vazir
30-Iyun 2026-yil

ABDURAXMONOV IBROXIM YULCHIYEVICH

Rais oʻrinbosari
25-Iyun 2026-yil

QUTBIDDINOV ISKANDARBEK ALISHER OʻGʻLI

Vazir
19-May 2026-yil

KARIMOVA E’ZOZXON GAPIRJONOVNA

Vazir
16-May 2026-yil

XAMRAYEV SHAVKAT RAXIMOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi
qo‘mitasining 2026-yil 1-iyuldagi 8-son qaroriga
1-ILOVA

.

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (0112-26-son SanQvaN)

.

Mazkur sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (bundan buyon matnda sanitariya qoidalari deb yuritiladi) tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash, shuningdek tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy konsentratsiyalarini belgilashga doir sanitariya-gigiyena talablarini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur sanitariya qoidalarida quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

tuproq – yer yuzasining tabiiy yoki antropogen omillar ta’siri natijasida shakllanadigan, o‘simliklarning yashashi uchun zarur unumdorlik xususiyatlariga ega bir nechta qatlamdan iborat bo‘lgan ustki qismi;

tuproqning ifloslanishi – tuproqning sifatini yomonlashtiradigan hamda atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan zararli kimyoviy va radioaktiv moddalarning, neftning, neft mahsulotlarining hamda mikroorganizmlarning tuproqqa tushishi va to‘planishi;

tuproqdagi ekzogen zararli moddalar – tabiiy fon miqdoridan ortiq miqdorda yoki tuproq uchun xos bo‘lmagan holda sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, maishiy va boshqa antropogen manbalardan tuproqqa tushadigan hamda inson salomatligiga, o‘simlik va hayvonot dunyosiga yoki atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan kimyoviy moddalar.

.

2-bob. Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholashga qo‘yiladigan talablar

1-§ Aholi punktlari hududlari tuprog‘ining ifloslanish darajasini baholashga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari

.

2. Aholi punktlari hududlari tuprog‘ining ifloslanish bilan bog‘liq xavfini baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

ifloslangan aholi punktlari hududlari tuprog‘ida yuqumli va parazitar kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarining mavjudligi hamda ularning aholi salomatligiga xavf tug‘dirish ehtimoli;

aholi punktlari hududlari tuprog‘idagi zararli moddalarning ular bilan bevosita aloqa qilish, tuproq zarrachalarining og‘iz orqali yoki tuproq changining nafas olish yo‘llari orqali inson organizmiga tushish ehtimoli;

ifloslangan aholi punktlari hududlari tuprog‘idan chang, bug‘ va gazlar ajralishi natijasida atmosfera havosining yerga yaqin qatlamlari ikkilamchi ifloslanishi ehtimoli;

ifloslantiruvchi moddalarning atmosfera havosidan aholi punktlari hududlari tuprog‘ining yuzasiga tushishi va tuproqda to‘planish darajasi.

3. Aholi punktlari hududlari tuprog‘ining sanitariya-gigiyenik holatini baholashda uning kimyoviy ifloslanish darajasi va epidemik xavf ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

4. Aholi punktlari hududlari tuprog‘ining kimyoviy ifloslanishi asosida tuproq mikrobiotsenozi, biologik faolligi va patogen organizmlarning yashovchanligiga ta’siri baholanishi lozim.

5. Aholi punktlari hududlari tuprog‘ining sanitariya-epidemiologik holati va epidemik xavf darajasi patogen hamda sanitariya-ko‘rsatkich mikroorganizmlar, shu jumladan patogen enterobakteriyalar va enteroviruslar, shuningdek geogelmint tuxumlari va lichinkalarining mavjudligi, miqdori hamda yashovchanligi bo‘yicha baholanadi.

6. Aholi punktlari hududlari tuprog‘ining sanitariya-gigiyenik holatini baholash mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Yerdan foydalanish turiga ko‘ra tuproqning sanitariya-gigiyenik ko‘rsatkichlarini qo‘llash mazkur sanitariya qoidalarining 2-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Aholi punktlari hududlari tuprog‘ining mikrobiologik, virusologik va parazitologik ifloslanish ko‘rsatkichlari hamda ularni baholash mazkur sanitariya qoidalarining 3-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Aholi punktlari hududlari tuprog‘i ifloslanishining inson salomatligiga ta’sirini baholashda bolalarning tuproq bilan bevosita aloqasi, ifloslangan qo‘l va buyumlarni og‘izga olib borishi, tuproq zarrachalarini tasodifan yutishi, geofagiya holatlari hamda tuproq changini nafas orqali qabul qilishi ehtimoli inobatga olinadi.

10. Aholi punktlari hududlari, shu jumladan bolalar o‘yin maydonchalarining tuprog‘i qo‘rg‘oshin va boshqa zararli moddalar bilan ifloslanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

11. Atmosfera havosining ikkilamchi ifloslanish xavfini baholashda aholi punktlari hududlari tuprog‘idagi og‘ir metallar va boshqa zararli moddalarning miqdori, ularning fizik-kimyoviy, chang hosil qilish xususiyatlari, tuproq yuzasining holati hisobga olinadi.

12. Aholi punktlari hududlarining tuprog‘idagi qo‘rg‘oshin miqdori 250 mg/kg va undan yuqori bo‘lganda, mis miqdori esa 1500 mg/kg va undan yuqori bo‘lganda atmosfera havosida ularning ruxsat etilgan konsentratsiyasidan oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

13. Aholi punktlari hududlarining tuprog‘ida uchraydigan zararli kimyoviy moddalarning xavflilik darajasi va tasnifi mazkur sanitariya qoidalarining 4-ilovasiga muvofiq aniqlanadi.

.

14. Aholi punktlari hududlari tuprog‘ining zararli kimyoviy moddalar bilan ifloslanish xavfi ushbu moddalarning yer usti va yer osti suvlariga, atmosfera havosiga, oziq-ovqat mahsulotlariga, inson salomatligiga hamda tuproqning biologik faolligiga ta’sirini hisobga olgan holda baholanadi.

.

2-§ **Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘ining sanitariya-gigiyenik holatini baholashga qo‘yiladigan talablar**

.

15. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘ining kimyoviy moddalar bilan ifloslanish xavfi ushbu moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy konsentratsiyalari qiymatlari, shuningdek tuproqdan o‘simlikka o‘tish (translokatsion) xususiyatlarini hisobga olgan holda baholanadi.

16. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘idagi zararli moddalarning qishloq xo‘jaligi ekinlariga va ulardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

17. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘ining kimyoviy ifloslanish darajasini baholash va undan foydalanish ushbu sanitariya qoidalarining 5-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

18. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘ining kimyoviy ifloslanish darajasi undagi zararli moddalarning haqiqiy miqdorini ularning ruxsat etilgan maksimal yoki taxminiy konsentratsiyalari bilan solishtirish asosida aniqlanadi.

19. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘i ifloslanishining salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida agrotexnik, meliorativ va sanitariya-gigiyenik chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

20. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘ining sanitariya-gigiyenik holati va ifloslanish darajasi laboratoriya tekshiruvlari, dala kuzatuvlari hamda gigiyenik tadqiqotlar natijalari asosida kompleks baholanadi.

21. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘ining ifloslanish darajasini baholashda undan foydalanish turi, yetishtiriladigan ekinlar, sug‘orish sharoiti, ifloslanish manbai hamda zararli moddalarning inson salomatligiga ta’sir qilish ehtimoli hisobga olinadi.

22. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘ining sanitariya-gigiyenik holatini baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

ifloslantiruvchi kimyoviy moddalar va birikmalarning turi hamda tuproqdagi miqdori;

toksikologik va fizik-kimyoviy xususiyatlari;

granulometrik tarkibi, kislotalilik darajasi, organik moddalar miqdori va zararli moddalarning harakatchanligi hamda bioo‘zlashtiriluvchanligiga ta’siri;

ifloslantiruvchi moddalarning tuproq qatlamlari, yer usti va yer osti suvlari, atmosfera havosi, o‘simliklar hamda oziq-ovqat zanjiriga o‘tish xususiyatlari.

.

3-§ **Sanoat chiqindilari tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning tuproqdagi xavflilik darajasini baholashga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari**

.

23. Sanoat chiqindilari tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning tuproq va inson salomatligi uchun xavflilik darajasini baholashda ularning xavflilik sinfi hisobga olinadi.

24. Sanoat chiqindilari tarkibidagi zararli kimyoviy moddalar tuproqdagi xavflilik darajasiga ko‘ra quyidagi sinflarga ajratiladi:

1-sinf – o‘ta xavfli zararli kimyoviy moddalar;

2-sinf – yuqori xavfli zararli kimyoviy moddalar;

3-sinf – o‘rtacha xavfli zararli kimyoviy moddalar;

4-sinf – kam xavfli zararli kimyoviy moddalar.

25. Sanoat chiqindilari tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning tuproqdagi xavflilik sinfi to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lmaganda, ularning

xavflilik darajasi xavflilik indeksi asosida aniqlanadi.

26. Sanoat chiqindilari tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning tuproqdagi xavflilik indeksi ularning tuproqdagi ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi, LD_{50} ko‘rsatkichi yoki ishchi hudud havosidagi xavflilik sinfi asosida hisoblanadi.

27. Sanoat chiqindilari tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning tuproqdagi ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi belgilangan bo‘lsa, ularning xavflilik indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_i = \frac{REMK_i}{(S_i + C_{,,}) * \mathrm{i}};$$

bu yerda:

$REMK_i$ – tuproqdagi zararli kimyoviy moddaning REMK (mg/kg);

S_i – tuproqdagi zararli kimyoviy moddaning suvda eruvchanligini aks ettiruvchi koeffitsiyent (mg/l);

i – sanoat chiqindisi tarkibidagi zararli kimyoviy moddaning tartib raqami.

28. Sanoat chiqindisining umumiy xavflilik ko‘rsatkichi uning tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning individual xavflilik koeffitsiyentlari asosida aniqlanadi.

29. Sanoat chiqindisi tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning tuproq uchun umumiy zaharlilik indeksi (KΣ) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathrm{K}_\Sigma = \frac{1}{\mathrm{n}^2} \times \sum \mathrm{K}_{\mathrm{i}},$$

bu yerda, n – tanlab olingan yetakchi moddalar soni.

30. Sanoat chiqindisi tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning tuproqdagi ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi bo‘yicha xavflilik sinfi mazkur sanitariya qoidalarining 6-ilovasiga muvofiq aniqlanadi.

31. Sanoat chiqindisi tarkibidagi zararli kimyoviy moddaning tuproqdagi ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi belgilanmagan bo‘lsa, uning xavflilik sinfi LD_{50} ko‘rsatkichi asosida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$K_i = \frac{\lg*(LD_{50})}{(S_i + 0.1\,F)*i},$$

bu yerda:

S_i – tuproqdagi zararli kimyoviy moddaning suvda eruvchanlik koeffitsiyenti (mg/l);

F – tuproqdagi zararli kimyoviy moddaning uchuvchanlik koeffitsiyenti (o‘lchovsiz, 0–1 oralig‘idagi koeffitsiyent);

i – tuproqdagi zararli kimyoviy moddaning tartib raqami.

32. Xavflilik sinfi LD_{50} ko‘rsatkichi asosida aniqlanganda, sanoat chiqindisi tarkibida aniqlangan har bir zararli kimyoviy modda uchun individual xavflilik koeffitsiyenti hisoblanadi.

33. Ishchi hudud havosidagi xavflilik ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lmaganda, uning xavflilik koeffitsiyenti LD_{50} ko‘rsatkichi asosida aniqlanadi.

Zararli kimyoviy moddaning tuproqdagi xavflilik sinfi mazkur sanitariya qoidalarining 7-ilovasi asosida aniqlanadi.

34. Sanoat chiqindisi tarkibida zararli kimyoviy moddalar kombinatsiyasi mavjud bo‘lganda ularning umumiy xavflilik darajasi mazkur sanitariya qoidalarining 8-ilovasiga muvofiq aniqlanadigan xavflilik sinfi asosida baholanadi.

35. Sanoat chiqindisi tarkibida zararli kimyoviy moddalar kombinatsiyasi mavjud bo‘lganda xavflilik indeksini hisoblashda quyidagilar inobatga olinadi:

zararli kimyoviy moddaning atom massasi;

zararli kimyoviy moddaning molekulyar massasi;

zararli kimyoviy moddaning suvda eruvchanligi;

zararli kimyoviy moddaning tuproqdagi ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi.

Bunda sanoat chiqindisi tarkibidagi zararli kimyoviy moddaning tuproqdagi xavflilik indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$J = \lg \frac{A * S}{a * M * (REMK)}$$

bu yerda:

A – tuproqdagi zararli kimyoviy moddalarning atom og‘irligi;

M – tuproqdagi zararli kimyoviy moddalarning molekulyar massasi;

S – kimyoviy birikmaning suvda eruvchanligi (mg/l);

a – hisoblanayotgan kimyoviy moddaning olti xil oziq-ovqat mahsulotidagi (go‘sht, baliq, sut, non, sabzavotlar, mevalar) REMK qiymatlarining o‘rtacha arifmetik qiymati;

REMK – tuproqdagi zararli kimyoviy moddaning ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi.

36. Sanoat chiqindisi tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning ishchi hudud havosidagi xavflilik sinfi hamda LD_{50} ko‘rsatkichi bo‘yicha tasnifi mazkur sanitariya qoidalarining 9-ilovasiga muvofiq aniqlanadi.

.

4-§ Tuproqning parazitologik holatini baholashga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari

.

37. Tuproqning ekstensiv parazitologik ifloslanish ko‘rsatkichi parazitar kasalliklar qo‘zg‘atuvchilari namunalari sonining tekshirilgan namunalar umumiy soniga nisbatini foizlarda ifodalash orqali quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$A = \frac{B}{C} * 100$$

bu yerda:

A – tuproqning ekstensiv ifloslanish ko‘rsatkichi (%);

B – tuproqda parazitar kasallik qo‘zg‘atuvchilari aniqlangan namunalar soni;

C – tuproqda tekshirilgan namunalarning umumiy soni.

38. Tuproqning intensiv ifloslanish ko‘rsatkichi 100 g yoki 1 kg tuproqda aniqlangan parazitar kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarining tuxumlari, lichinkalari, sistalari va oosistalari soni asosida aniqlanadi.

39. Hudud toifalari bo‘yicha tuproqning mikrobiologik, parazitologik va entomologik ifloslanishi mazkur sanitariya qoidalarining 10-ilovasiga muvofiq baholanadi.

.

5-§ **Tuproqning entomologik holatini baholashga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari**

.

40. Tuproqning entomologik holatini baholashda sinantrop pashshalar lichinkalari va g‘umbaklarining rivojlanishi hamda ko‘payishi uchun qulay sharoit yaratadigan chiriyotgan organik moddalar va maishiy chiqindilarning to‘planishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

41. Tuproqning entomologik holati 20 × 20 cm maydonda sinantrop pashshalarning preimaginal shakllari, lichinkalari va g‘umbaklarining mavjudligi yoki mavjud emasligi bo‘yicha baholanishi kerak.

42. Aholi punktlari hududlari, shu jumladan bolalar o‘yin maydonchalari tuprog‘ida sinantrop pashshalarning lichinkalari yoki g‘umbaklari aniqlanganda, tuproqning sanitariya-entomologik holati qoniqarsiz deb baholanadi.

43. Tuproqdagi suyuq va xavfli maishiy chiqindilarni to‘plash, saqlash, tashish hamda ular bilan bog‘liq boshqa ishlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktabrdagi 787-son qarori bilan tasdiqlangan Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish qoidalarining talablariga rioya etilishi kerak.

.

6-§ **Tuproqning biologik faolligini baholashga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari**

.

44. Tuproqning biologik faolligini baholashda mikroorganizmlarning umumiy soni va asosiy guruhlari, mikrobiologik biomassa, tuproq respiratsiyasi, azot va uglerod birikmalarining transformatsiya jarayonlari, fermentlar faolligi, oksidlanish-qaytarilish potensiali hamda tuproqning kislotalilik darajasi hisobga olinadi.

45. Tuproqning biologik faolligini dastlabki baholashda tuproq respiratsiyasi, mikrobiologik biomassa, fermentlar faolligi, ammonifikatsiya va nitrifikatsiya jarayonlarini tavsiflovchi integral ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

46. Tuproqning biologik faolligini davriy baholash bir xil namuna olish sharoitlari va laboratoriya usullaridan foydalangan holda dastlabki, fon yoki nazorat ko‘rsatkichlari bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi.

47. Tuproqning mikrobiologik koʻrsatkichlari fon yoki nazorat koʻrsatkichlariga nisbatan 50 foizdan, biokimyoviy koʻrsatkichlari esa 25 foizdan ortiq oʻzgarmaganda tuproq biologik faollik koʻrsatkichlari boʻyicha ifloslanmagan deb baholanadi.

.

3-bob. Tuproqdan namuna olish va uni tekshirishga qoʻyiladigan sanitariya-gigiyena talablari

.

48. Tuproqdan namuna olish hududi ifloslanish manbasining joylashuvi va xususiyatlari, hududdagi shamol yoʻnalishi, relyef, ifloslantiruvchi moddalarning tarqalish xususiyati hamda taxminiy ta’sir zonasini hisobga olgan holda belgilanadi.

49. Namuna olish nuqtalari shamol yoʻnalishi boʻylab ifloslanish manbasidan turli masofalarda (odatda 100 m dan 5000 m gacha) boʻlgan oraliqda joylashtiriladi.

Bunda toʻliq masofalar zanjiri (odatda 100–5000 m) faqat yirik sanoat ifloslanish manbalari uchun qoʻllaniladi. Kichik, mahalliy yoki kam quvvatli ifloslanish manbalari uchun namuna olish masofalari manbaning quvvati, ifloslantiruvchi moddalarning tarqalish xususiyati va taxminiy ta’sir radiusini hisobga olgan holda qisqartirilishiga yoʻl qoʻyiladi.

50. Tuproqdan namuna olish maydonchalari ifloslanish manbasidan turli masofalarda, shuningdek nisbatan ifloslanmagan hududlarda nazorat nuqtalari sifatida joylashtirilishi lozim.

51. Magistral avtomobil yoʻllarining tuproq holatiga ta’sirini baholash maqsadida tuproq namunalari asfalt qoplamasi chetidan 0–10 m, 10–50 m va 50–100 m masofalarda joylashtirilgan namuna olish nuqtalaridan olinadi.

Namuna olish nuqtalari yoʻl boʻylab 200–500 m uzunlikdagi transekt doirasida joylashtiriladi. Bunda hududning relyefi, shamol yoʻnalishi, yer usti va yer osti suvlari oqimining yoʻnalishi, oʻsimlik qoplami hamda yerdan foydalanish xususiyatlari hisobga olinadi.

52. Tuproq tekshiriladigan hududlarda har 15 gektargacha boʻlgan maydon uchun kamida bitta namuna olish uchastkasi tashkil etiladi. Namuna olish uchastkasi hududning relyefi, tuproq qoplami, yerdan foydalanish turi hamda ifloslanish manbalarining joylashuvini hisobga olgan holda tanlanadi.

Har bir namuna olish uchastkasida 5 × 5 m oʻlchamdagi maydon doirasidan “konvert” yoki diagonal usulda namuna olinadi.

53. Har bir namuna olish uchastkasidan teng hajmda olingan 5–10 ta nuqtaviy namuna birlashtirilib, bitta aralash (kompozit) tuproq namunasi hosil qilinadi.

Hududdagi ifloslanishning notekis taqsimlanganligi aniqlanganda yoki o‘rganish o‘tkazilganda nuqtaviy namunalar soni 20 tagacha oshirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

54. Tuproq namunalarini olish chuqurligi tadqiqot maqsadi va yerdan foydalanish turiga ko‘ra belgilanadi.

55. Aholi punktlari hududlarida va bolalar o‘yin maydonchalarida yuzaki ta’sirni baholash uchun namunalar 0–10 cm chuqurlikdagi qatlamdan olinadi, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda esa namunalar haydalma qatlam chuqurligida (0–25 cm) olinadi.

56. Mikrobiologik va parazitologik tekshiruvlar uchun tuproq namunalari steril idishlarga olinishi lozim.

57. Tuproqning uchuvchan moddalar bilan ifloslanishini aniqlash uchun olingan namunalar germetik yopiladigan maxsus idishlarga joylashtirilishi kerak.

58. Og‘ir metallar, granulometrik tarkib, pH, gumus, makro va mikroelementlar miqdorini aniqlash hamda radiologik tekshiruvlar o‘tkazish uchun olingan tuproq namunalari toza polietilen paketlarga joylashtirilishi, tamg‘alanishi, ro‘yxatga olinishi va raqamlanishi lozim.

59. Namunalarni saqlash muddati, harorati va konservatsiya qilish tartibi bajariladigan fizik-kimyoviy, mikrobiologik, toksikologik hamda boshqa laboratoriya tekshiruvlarining xususiyatlariga muvofiq belgilanadi.

Namunalarni saqlash va tashish jarayonida ularning tarkibi, xossalari hamda aniqlanadigan ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

60. Har bir tahlil qilinadigan tuproq namunasidan zaxira namuna ajratilishi, bunda zaxira namunaning miqdori, saqlash sharoiti va muddati tahlil turi hamda sinov usuli talablariga muvofiq belgilanishi kerak.

61. Tuproqni tekshirish birinchi navbatda, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, tibbiyot tashkilotlari, turar joy va rekreatsiya hududlari, ichimlik suvi ta’minoti manbalari hamda ularning sanitariya muhofazasi zonalarida, shuningdek qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda o‘tkazilishi lozim.

Tuproqni tekshirish yiliga ikki marta bahor va kuz fasllarida o‘tkaziladi.

62. Tuproqning sanitariya-bakteriologik holati patogen va sanitariya-ko‘rsatkich mikroorganizmlarning mavjudligi hamda miqdori bo‘yicha baholanadi.

Bunda ushbu baholash aniqlanadigan mikroorganizmlarning turi hamda qo‘llaniladigan sinov usullariga muvofiq belgilanadi.

63. Tuproqdagi kolifaglar miqdori virusli fekal ifloslanish indikatori sifatida baholanadi.

Tuproqning enteroviruslar bilan ifloslanganligi ularni bevosita aniqlash usullari natijalari asosida baholanadi.

.

4-bob. Tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy ruxsat etilgan konsentratsiyalariga qoʻyiladigan sanitariya-gigiyena talablari

.

64. Tuproqdagi ekzogen kimyoviy moddalarning ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyalari (REMK) va taxminiy konsentratsiyalari (TREK) mazkur sanitariya qoidalarining 11-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

65. Pestitsidlarning tuproqdagi taxminiy ruxsat etilgan konsentratsiyalari (TREK) mazkur sanitariya qoidalarining 12-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda
tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal
va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari
va gigiyena normativlariga
(0112-26-son SanQvaN)
1-ILOVA

Aholi punktlari hududlari tuprog‘ining sanitariya-gigiyenik holatini baholash ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birliklari
Sanitariya-kimyoviy ko‘rsatkichlar:		
1.	Oqsil azotining umumiy organik azotga nisbati (sanitariya raqami)	nisbiy birlik
2.	Ammoniy azoti	mg/kg tuproq
3.	Nitrat azoti	mg/kg tuproq
4.	Xloridlar	mg/kg tuproq
5.	pH	-
6.	Pestitsidlar (qoldiq miqdorlari)*	mg/kg tuproq
7.	Og‘ir metallar**	mg/kg tuproq
8.	Neft uglevodorodlari	mg/kg tuproq
9.	Uchuvchan fenollar	mg/kg tuproq
10.	Oltingugurtli birikmalar**	mg/kg tuproq
11.	Kanserogen moddalar**	mg/kg
12.	Radionuklidlarning solishtirma faolligi**	Bk/kg tuproq
13.	Makrokimyoviy o‘g‘itlar*	mg/kg tuproq
14.	Mikrokimyoviy o‘g‘itlar*	mg/kg tuproq
Sanitariya-bakteriologik ko‘rsatkichlar:		
15.	Termofil bakteriyalar	indeks
16.	Ichak tayoqchasi guruhi bakteriyalari	titr, g
17.	Klostridium perfringens	titr, g
18.	Patogen mikroorganizmlar (shu jumladan salmonella)	aniqlanmasligi kerak (g namunada)
Sanitariya-gelmintologik ko‘rsatkichlar:		
19.	Gelmint tuxumlari va lichinkalari (hayotiy qobiliyatli)	dona/kg tuproq
Sanitariya-entomologik ko‘rsatkichlar:		

20.	Sinantrop pashshalarning lichinka va g‘umbaklari (hayotiy qobiliyatli)	dona/kg tuproq

Izohlar:

** ko‘rsatkichlar ro‘yxati muayyan hududda qo‘llaniladigan qishloq xo‘jaligini kimyolashtirish vositalarining kimyoviy tarkibidan kelib chiqib belgilanadi;*

*** ko‘rsatkichlar ro‘yxati sanoat korxonalari chiqindilarining tarkibi va xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi.*

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda
tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal
va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari
va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)
2-ILOVA

Yerdan foydalanish turiga ko‘ra sanitariya-gigiyenik ko‘rsatkichlarning qo‘llanilishi

.

Koʻrsatkichlar nomi	Yerdan foydalanish turlariga koʻra koʻrsatkichlarning qoʻllanilishi						
	Aholi punktlari yerlari	Tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlar	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga moʻljallangan yerlar	Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar	Oʻrmon fondi yerlari	Suv fondi yerlari	Zaxira yerlar
Sanitariya raqami	±	±	–	–	–	–	–
Ammoniyli azot	+	+	±	±	±	+	±
Nitratli azot	+	+	±	±	±	+	±
Xloridlar	±	±	±	±	±	±	±
pH	±	±	±	±	±	±	±
Pestitsidlar	+	+	±	+	+	±	±
Ogʻir metallar	+	+	+	+	±	+	±
Neft va neft mahsulotlari	+	+	+	±	–	+	±
Uchuvchan fenollar	+	+	+	±	–	+	±
Oltingugurtli birikmalar	+	+	+	±	±	+	±
Kanserogen moddalar	+	+	+	+	±	+	±

Radioaktiv moddalar	+	+	+	+	±	+	±
Makrokimyoviy o‘g‘itlar	±	–	–	+	–	–	–
Mikrokimyoviy o‘g‘itlar	±	–	–	+	+	–	–
Termofil bakteriyalar	±	±	±	±	–	±	–
Ichak tayoqchasi guruhi bakteriyalari	+	+	+	+	±	+	±
Clostridium perfringens	+	+	±	+	–	+	±
Gelmint tuxum va lichinkalari	+	+	±	+	±	+	±
Sinantrop pashshalarning lichinka va g‘umbaklari	+	+	–	±	–	–	–

Izohlar:

“+” *– ko‘rsatkichni aniqlash majburiy;*

“−” *– ko‘rsatkichni aniqlash talab etilmaydi;*

“±” *– ko‘rsatkichni aniqlash faqat ifloslanishning aniq manbai mavjud bo‘lganda majburiy.*

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda
tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal
va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari
va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)
3-ILOVA

Tuproqning mikrobiologik, virusologik va parazitologik ifloslanish ko‘rsatkichlari hamda ularni baholash

Obyektlar	**Tuproqning ifloslanganlik darajasi**	**Ifloslanish ko‘rsatkichlari**				
		Ichak tayoqchalari (koli-indeks)	**Enterokokklar** (entero-indeks)	**Patogenentero-bakteriyalar**	**Enteroviruslar**	**Gelmintlar**
Yuqori xavf zonalari	toza	1 – 9	1 – 9	-	-	-
	ifloslangan	10 va undan yuqori	10 va undan yuqori	+	+	+
Sanitariya-muhofaza zonalari	toza	1 – 99	1 – 99	-	-	-
	ifloslangan	100 va undan yuqori	100 va undan yuqori	+	+	+

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda
tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal
va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari
va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)
4-ILOVA

Aholi punktlari hududlari tuprog‘ida uchraydigan zararli kimyoviy moddalarning xavflilik darajasi va tasnifi

Moddaning xavflilik darajasi	**Tasnifi**
I	margimush, kadmiy, simob, qo‘rg‘oshin, selen, rux, ftor, benz(a)piren
II	bor, kobalt, nikel, molibden, mis, surma, xrom
III	bariy, vanadiy, volfram, marganes, stronsiy, atsetofenon

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)
5-ILOVA

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuprog‘ining kimyoviy ifloslanish darajasini baholash va undan foydalanish tasnifi

T/r	Tuproqning ifloslanish darajasi	Baholash mezonlari	Tuproqdan foydalanish bo‘yicha talablar
1.	Ruxsat etiladigan	tuproqdagi zararli kimyoviy moddalar miqdori fon ko‘rsatkichidan yuqori, biroq ularning ruxsat etilgan maksimal yoki taxminiy konsentratsiyalaridan oshmaydi	belgilangan agrotexnik va sanitariya talablariga rioya etilgan holda qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun foydalanishga yo‘l qo‘yiladi
2.	O‘rtacha xavfli	tuproqdagi zararli kimyoviy moddalar miqdori zararlilikning uchta cheklovchi ko‘rsatkichi bo‘yicha ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyadan (REMK) oshgan, biroq translokatsiya ko‘rsatkichi bo‘yicha ruxsat etilgan darajadan oshmagan	qishloq xo‘jaligi ekinlari sifatini nazorat qilish sharti bilan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun foydalanishga ruxsat etiladi
3.	Yuqori xavfli	zararli kimyoviy moddalarning o‘simlikka o‘tishi yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida ortiq to‘planishi aniqlanadi	texnik ekinlar uchun foydalanish mumkin, qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun foydalanish to‘plovchi o‘simliklarni hisobga olgan holda cheklangan
4.	O‘ta xavfli	zararli kimyoviy moddalar miqdori tuproqda barcha zararlilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyadan (REMK) oshgan	faqat texnik ekinlar uchun foydalanish mumkin

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda
tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal
va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari
va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)
6-ILOVA

Sanoat chiqindisi tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning tuproqdagi ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi bo‘yicha xavflilik sinfini aniqlash

Umumiy xavflilik indeksi (KΣ)	Xavflilik darajasi	Xavflilik sinfi
2,0 dan kam	o‘ta xavfli	I
2,0 dan 16,0 gacha	yuqori xavfli	II
16,0 dan ortiq, 30,0 gacha	o‘rtacha xavfli	III
30,0 dan ortiq	kam xavfli	IV

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda
tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal
va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari
va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)
7-ILOVA

Zararli kimyoviy moddaning tuproqdagi xavflilik sinfini aniqlash

Umumiy xavflilik indeksi (K)	Xavflilik darajasi	Xavflilik sinfi
1,3 dan kam	o‘ta xavfli	I
1,3 dan 3,4 gacha	yuqori xavfli	II
3,4 dan ortiq, 10,0 gacha	o‘rtacha xavfli	III
10,0 dan ortiq	kam xavfli	IV

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)

8-ILOVA

Sanoat chiqindisi tarkibida zararli kimyoviy moddalar kombinatsiyasi mavjud bo‘lganda umumiy xavflilik darajasini aniqlash

Xavflilik indeksi qiymati	Xavflilik darajasi	Xavflilik sinfi
4,0 dan ortiq	o‘ta xavfli	I
2,5 dan 4,0 gacha	yuqori xavfli	II
0,1 dan 2,5 gacha	o‘rtacha xavfli	III
0,1 dan kam	kam xavfli	IV

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda
tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal
va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari
va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)
9-ILOVA

Sanoat chiqindisi tarkibidagi zararli kimyoviy moddalarning ishchi hudud havosidagi xavflilik sinfi hamda LD_{50} ko‘rsatkichi bo‘yicha tasnifi

Zararli kimyoviy moddaning ishchi hudud havosidagi xavflilik sinfi	**Xavflilik sinfiga mos shartli LD_{50} qiymati, mg/kg**
I	15 gacha
II	15 dan 150 gacha
III	150 dan 5000 gacha
IV	5000 dan ortiq

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)
10-ILOVA

Hudud toifalari bo‘yicha tuproqning mikrobiologik, parazitologik va entomologik ifloslanish mezonlari

Aniqlanadigan ko‘rsatkich	**Yuqori xavf zonalari (mintaqalar)**		**Suv havzalarini muhofaza qilish hududlari**		**Sanitariya-muhofaza hududlari**	
	toza tuproq	ifloslangan tuproq	toza tuproq	ifloslangan tuproq	toza tuproq	ifloslangan tuproq
Ichak tayoqchalari	1 – 9	10 va undan yuqori	1 – 9	10 va undan yuqori	1 – 99	100 va undan yuqori
Enterobakteriyalar	1 – 9	10 va undan yuqori	1 – 9	10 va undan yuqori	1 – 99	100 va undan yuqori
Patogen entero-bakteriyalar	-	+	1 – 9	10 va undan yuqori	-	+
Enteroviruslar	-	+	-	+	-	+
Gijja tuxumlari (dona/kg), askarida, onkosfera, teniidlar	-	+	-	+	5 gacha	5 dan ortiq
Ichak patogen protozoylarining sistalari (ekz/100 g)					5 gacha	5 dan ortiq
Pashsha lichinkalari (L) va g‘umbaklari (K), ekz. tuproqda 20 x 20 cm maydondan	-	L – 10 gacha K – yo‘qligi	-	L – 10 gacha K –yo‘qligi	-	L – 10 gacha K – yo‘qligi

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda iyuldagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0112-391-son SanQvaN)
11-ILOVA

Tuproqdagi ekzogen kimyoviy moddalarning ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyalari (REMK) va taxminiy konsentratsiyalari (TREK)

Zararlik koʻrsatkichi boʻyicha moddaning nomlanishi	REMK (ammoniy-atsetatli bufer eritmasida, pH=4,8), mg/kg	REMK (1 N azot kislotasi eritmasida), mg/kg	TREK (yalpi miqdor), mg/kg
Umumsanitariya zararlilik koʻrsatkichlari			
Benz(a)piren	-	0,02	0,02
Vanadiy	-	150,0	150
Marganes + vanadiy	-	1000,0	1000 + 150
Volfram	10,0	-	55
Keltan	-	1,0	1,0
Kobalt	5,0	-	50,0
Mis	3,0	13,2 dan 22,0 gacha	55,0
Molibden	10,0	-	15,0
Nikel	4,0	25,0	35,0
Koʻmir flotatsiyasi chiqindilari (KFCh)	-	3000,0	3000,0
Qoʻrgʻoshin	6,0	10,0	32,0
Elementar oltingugurt	-	160,0	160,0
Sulfat kislotasi	-	160,0	160,0
Fosfatlar (P_2O_5)	-	27,2	27,2
Furfurol	-	3,0	3,0
Xrom (III)	6,0	-	100,0
Havo orqali tarqalishni cheklovchi zararlilik koʻrsatkichlari			
Alfametilstirol	-	0,5	0,5
Benzol	-	0,3	0,3
Izopropilbenzol (kumol)	-	0,5	0,5
Vodorod sulfid	-	0,4	0,4
Stirol	-	0,1	0,1
Formaldegid	-	7,0	7,0
Suv orqali tarqalishni cheklovchi zararlilik koʻrsatkichlari			
Suyuq kompleks oʻgʻitlar (SKOʻ), umumiy miqdori	-	80,0	120,0
Kompleks donador oʻgʻitlar (KDOʻ), umumiy	-	120,0	120,0

miqdori			
Marganes, umumiy miqdori	-	1500,0	1500,0
Marganes, harakatchan shakllari	60,0	-	60,0
Nitratlar	-	130,0	130,0
Kaliy xlorid	-	560,0	560,0
O‘simlikka o‘tishni cheklovchi zararlilik ko‘rsatkichlari			
Kislotalar (Krezollar) (orto-, meta-, para-)	-	0,3	0,3
Mishyak (As)	-	2,0	2,0
Simob (Hg), umumiy miqdori	-	2,1	2,1
Qo‘rg‘oshin + simob	-	20,0 + 1,0	20,0 + 1,0
Surma (Sb)	-	4,5	4,5
Toluol	-	0,3	0,3
Ftor	10,0	-	10,0
Rux (Zn)	23,0	85,0 dan 100,0 gacha	100,0 dan 220,0 gacha

Tuproqning sanitariya-gigiyenik holatini baholash hamda
tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal
va taxminiy konsentratsiyalariga doir sanitariya qoidalari, normalari
va gigiyena normativlariga (0112-26-son SanQvaN)
12-ILOVA

Pestitsidlarning tuproqdagi taxminiy ruxsat etilgan konsentratsiyalari (TREK)

T/r	Nomlanishi	Tuproqdagi taxminiy ruxsat etilgan konsentratsiya (mg/kg)
1.	Piriproksifen (Pyriproxyfen)	1,15
2.	Molinat (Molinate)	0,9
3.	Siprokonazol (Cyproconazole)	0,15
4.	Buprofezin (Buprofezin)	0,39
5.	Triadimefon (Triadimefon)	1,91
6.	Triadimenol+feberidazol (Triadimenol+fuberidazole)	1,15
7.	Bentazon (Bentazone)	1,15
8.	Dikamba (Dicamba)	0,25
9.	Ammoniy glyufosinat (Glufosinate-Ammonium)	0,1
10.	Fosalon (Phosalone)	0,15
11.	Beta-tsiflutrin (Beta-cyfluthrin)	0,17
12.	Dimetoat (Dimethoate)	1,15
13.	Mis sulfat+kalsiy gidroksid (Copper sulfate+lime)	0,15
14.	Diklobutrazol (Diclobutrazol)	1,23
15.	Abamektin (Abamection)	0,5
16.	Karboksin+tiram (Carboxin+thiram)	1,5
17.	Imidakloprid (Imidacloprid)	1,15
18.	Permetrin (Permethrin)	0,5
19.	Geptaxlor (Heptachlor)	0,1
20.	Metamitron (Metamitron)	0,4
22.	Fenpropatrin (Fenpropathrin)	0,01
23.	DDT (DDT)	0,5
24.	Fenazakin (Fenazaquin)	0,2
25.	Bacillus thuringiensis var. dendrolimus (Bacillus thuringiensis var. dendrolimus)	$6 \cdot 10^5$ mikrob tanachasi (m.t.)/kg
26.	Karbendazim (Carbendazim)	0,1
27.	Deltametrin (Deltamethrin)	1,15
28.	Diazinon (Diazinon)	1,15

29.	Difenokonazol (Difenoconazole)	0,3
30.	Tidiazuron (Thidiazuron)	0,15
31.	Temir sulfat (Ferrous sulfate)	1,0
32.	Galoksifop (Haloxyfop)	0,15
33.	Metribuzin (Metribuzin)	0,65
34.	Kalsiy polisulfid (Calcium polysulfide)	0,15
35.	Fenoksikarb (Fenoxycarb)	0,3
36.	Xlormekvat (Chlormequat)	1,15
37.	Dinokap (Dinocap)	1,0
38.	Lambda-sigalotrin (Lambda-cyhalothrin)	0,05
39.	Malation (Malathion)	0,15
40.	Beta-sipermetrin (beta-cypermethrins)	0,02
41.	Fluometuron (Fluomethuron)	0,03
42.	Mis gidroksidi (Copper hydroxide)	0,15
43.	Tiodikarb (Thiodicarb)	0,5
44.	Tau-fluvalinat (Tau-fluvalinate)	0,62
45.	Mis sulfat (Copper sulphate)	0,74
46.	Amitraz (Amitraz)	0,15
47.	Pensikuron (Pencycuron)	1,15
48.	Sikoksidim (Cycloxydim)	0,15
49.	Bromopropilat (Bromopropylate)	0,05
50.	Trifluralin (Trifluralin)	0,1
51.	Propargit (Propargite)	1,9
52.	Asefat (Acephate)	0,5
53.	Bromoksinil (Bromoxynil)	0,1
54.	Diafentiuron (Diafenthiuron)	0,2
55.	Pendimetalin (Pendimethalin)	1,15
56.	Mepikvat xlorid (Mepiquat chloride)	1,15
57.	Xlorpirifos (Chlorpyrifos)	0,2
58.	Etefon (Ethephon)	1,15
59.	Mineral moy (Mineral oil)	0,15
60.	Propanil (Propanil)	1,5
61.	Tebukonazol (Tebuconazole)	1,15
62.	Oksadiksil (Oxadixyl)	0,15
63.	Bentiokarb (Benthiocarb)	1,15
64.	Desmetrin (Desmetryn)	0,1
65.	Oltingugurt (Sulphur)	0,15
66.	Amidosulfuron (Amidosulfuron)	1,15
67.	Etalfluralin (Ethalfluralin)	0,15

68.	Esfenvalerat (Esfenvalerate)	1,0
69.	Fenitrotion (Fenitrothion)	1,0
70.	Bifentrin (Bifenthrin)	0,15
71.	Kvizalofop-P-etil (Quizalofop-P-ethyl)	0,1
72.	Gimeksazol (Hymexazol)	1,15
73.	Tiabendazol (Thiabendazole)	1,0
74.	Propikonazol (Propiconazole)	0,2
75.	Ioksinil (Ioxynil)	9,2
76.	Penkonazol (Penconazole)	0,1
77.	Tiofanat-metil (Thiophanate-methyl)	0,5
78.	Etofenproks (Etofenprox)	0,39
79.	Trichoderma spp. (Trichoderma spp.)	$1\text{-}10^6$ mikrob tanachasi (m.t.)/kg
80.	Kvinklorak (Quinclorac)	1,15
81.	Formaldegid (Formaldehyde)	0,15
82.	Benomil (Benomyl)	0,1
83.	Fenoksaprop-P-etil (Fenoxaprop-P-ethyl)	0,05
84.	Dimetipin (Dimethipin)	0,15
85.	Magniy xlorat (Magnesium chlorate)	1,0
86.	Kalsiy xlorat (Calcium chlorate)	0,15
87.	Xloroneb (Chloroneb)	0,6
88.	Sipermetrin (Cypermethrin)	0,92
89.	Propakvizafop (Propaquizafop)	0,15

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi iyuldagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi
qo‘mitasining 2026-yil 17-iyuldagi 391-son qaroriga
2-ILOVA

O‘z kuchini yo‘qotgan deb topilayotgan ayrim sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan 2005-yil 10-yanvarda tasdiqlangan “O‘zbekistonning o‘ziga xos tabiiy-iqlim sharoitlarida aholi punktlari tuproq sifatiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar” 0183-05-son SanQvaM.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan 2005-yil 5-noyabrda tasdiqlangan “Tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning sanitariya bo‘yicha ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyalari (REMK) va taxminiy ruxsat etilgan konsentratsiyalari (TREK)” 0191-05-son SanQvaM.

3. O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan 2006-yil 7-iyulda tasdiqlangan “O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlarida turli yerdan foydalanish turlari tuproqlarining ifloslanish darajasini gigiyenik baholash” 0212-06-son SanQvaM.

4. O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan 2009-yil 13-noyabrda tasdiqlangan “O‘zbekistonning o‘ziga xos tabiiy-iqlim sharoitlarida aholi punktlari tuproq sifatiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar” 0272-09-son SanQvaM.